



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika  
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023  
Maxsus son

**DJURAYEV Risbay**  
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

*Abdug'appon* QIRQIZBOYEV  
*Uzoqboy* BEGIMQULOV  
*Xolboy* IBRAGIMOV  
*Laylo* AXMEDOVA  
*Roxatoy* SAFAROVA  
*Leyla* DJURAYEVA  
*Dono* G'ANIYEVA  
*Lobar* QARAXANOVA  
*Dusmurod* DJURAYEV  
*Baxodir* AKBAROV  
*Komiljon* KARIMOV  
*Komiljon* GULYAMOV

## Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,  
Furqat ko'chasi,  
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **G.I. Muxamedov**  
Pedagogik ta'lim innovasion klaster: uzluksiz ta'limni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmi sifatida
- 8 **J.E. Usarov**  
Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi – ta'lim uzluksizligining bosh omili sifatida
- 13 **D.O. Ximmataliyev**  
Uzluksiz ta'lim bosqichlarida individual yondashuv asosida kasbga yo'naltirish omillari
- 18 **U.I. Mahkamov**  
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 24 **S.B. Qorayev**  
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 30 **G.O. Ernazarova**  
Ta'lim va amaliy faoliyat uzluksizligi klaster yondashuv asosida ta'minlash metodologiyasi
- 36 **Y.N. Xodjamkulov**  
Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning hamkorlik mexanizmlari
- 41 **M.O. Raxmanova**  
Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi
- 47 **Ф.У. Қодирова**  
Инклюзив таълимда узвийлик ва узлуksizlikni ta'minlashning pedagogik-psixologik mexanizmlari
- 53 **G.S. Abdullayeva**  
Uzluksiz inklyziv ta'limni sifatli ta'minlashda axborot texnologiyalarning o'rni
- P. Mусульмонов**  
59 Uzluksiz ta'lim muassasalarida ўquv жараёнига nisbatan intizomsizlikka oid pedagogik va psixologik qarashlar
- 65 **I. Qodirov**  
Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining taraqqiyot strategiyasi va uning amalga oshirish mexanizmlari
- 71 **J.F. Ravshanov**  
Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida «4+2» shakli bo'cha amaliyot o'tashni tashkil etish
- 75 **Y.YU. Fayzиева**  
Оптимизация специальных учреждений – как эффективный путь трансформации образования детей к ОБЗ от специального образования к инклюзивному
- 81 **Sh.A. Abdusalilova**  
Maxsus pedagogikaga oid fanlarning o'qitilishida uzviylikni ta'minlashning o'ziga xosligi
- 87 **N.J. Eshnaev**  
OTMlarda mobil mutaxassis tayyorlash – kasbiy yo'nalganlikning ijtimoiy-pedagogik kafolati ekanligi
- 93 **Sh.X. Kobilova**  
Uzluksiz inklyziv ta'lim muammosini xorij tajribasi misolida o'rganish va uning pedagogik tahlili
- 99 **M.F. Qurbanova**  
Uzluksiz ta'limda jaraonida zamonaviy yodashuvlar
- 104 **A.R. Raxmonov**  
Uzluksiz ta'lim tizimida uslubiy yordam ko'rsatishning pedagogik mobilli tizimidan foydalanish
- 110 **I.O. Sayfullayeva**  
Bo'lajak logopedlarning uzviy kasbiy faoliyatini metodik tizimlashtirishda art texnologiyalarning o'rni
- 116 **O.S. Ishmatova**  
Fonetik ritmika mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning nutqiy muammolarini bartaraf etish uzviyligini ta'minlash yo'llari
- 121 **N.A. Egamberdiyeva**  
Autizm sindromli bolalar bilan yakka ishlashning uzviyligini ta'minash omillari



## FONETIK RITMIKA MASHG'ULOTLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH UZVIYILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

**O. S.ISHMATOVA,**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika  
fakulteti «Maxsus pedagogika» kafedrasi o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada fonetik ritmika mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning nutqiy muammolarini bartaraf etish uzviyligini ta'minlash yo'llari borasida so'z yuritiladi.*

**Tayanch so'zlar:** fonetik ritmika, prosodika, jozibali nutq, alohida ehtiyojli o'quvchilar, inklyuziv ta'lim, vizual+audial+kinestetik metod, uzluksiz, kompleks yondashuv.

*В данной статье речь пойдёт о обеспечении непрерывности преодоления речевых проблем учащихся на основе занятий по фонетической ритмике.*

**Ключевые слова:** фонетическая ритмика, просодика, красиво поставленная речь, учащиеся с особыми потребностями, инклюзивное образование, визуальный+аудиальный+кинестетический метод, непрерывный, комплексный подход.

*In this article we will focus on ensuring the continuity of overcoming students' speech problems based on phonetic rhythm classes.*

**Key words:** phonetic rhythemics, prosodics, beautifully delivered speech, students with special needs, inclusive education, visual+auditory+kinesthetic method, continuous, integrated approach.

Ma'lum-ki, mamlakatimizning barcha umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim joriy etilmoqda. Endi har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisidan alohida ehtiyojli o'quvchiga yakka yondashish, uning imkoniyatlarini, potensialini namoyon qilishda yaqindan ko'maklashish borasida yetarlicha ko'nikma va malakaga ega bo'lish talab etilmoqda. Chirchiq davlat pedagogika universitetidav ilmiy-tadqiqot ishi olib borilmoqda. Ushbu ilmiy-tadqiqot ishining dastlabki kuzatuvlaridan ma'lum bo'ldi-ki, inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'quvchilarning 80-90 foizida muloqot qilishdagi kamchiliklar mavjud. Muloqotga kira olish esa ijtimoiy-lashuvning asosiy shartidir.

Sifatli muloqot bu nutqiy muloqot sanaladi. Nutqiy muloqot esa og'zaki yoki yozma tarzda namoyon qilinadi, ayniqsa og'zaki nutqdagi nuqsonlar o'quvchining imkoniyatini har tomondan cheklaydi. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar toifalari ichida og'zaki nutqi ko'p jihatdan nuqsonli bo'lgan bolalar bu eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar hisoblanadilar.

Umumta'lim maktablarida zaif eshituvchi bolalar atrofidagi nutqiy va nonutqiy



tovushlarni farqlash imkoniyatiga ham ega bo'ladilar, biroq eshitish qoldig'i mavjud bo'lsada ularning og'zaki nutqi prosodik jihatdan orqada qolishi, nutqiy nafas va ovozdan to'g'ri foydalana olmasligi, mayda motorikasidagi va umumiy tana harakatlaridagi o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga kelishi kuzatuvlarimiz davomida aniqlandi. Inkluziv ta'limga jalb etilgan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar orasida koxlear implantli bolalar ham mavjud. Koxlear implantatsiya bu eshitishni o'rni bosuvchi moslama bo'lib, ichki quloqqa jarrohlik amaliyoti yordamida o'rnatiladi, natijada eshitish qobiliyati bir muncha tiklanadi. O'quvchi atrofidagi nutqiy va nonutqiy tovushlarni eshita boshlaydi. Oxirgi 10 yilda koxlear implant o'rnatish bo'yicha Zamin fondi katta salmoqli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. O'z-o'zidan umumta'lim maktablarda koxlear implantli o'quvchilar ulushi ko'paymoqda. Shuning uchun tadqiqotimizda koxlear implant bolalar bilan ham ishlashning o'ziga xos metodikalarini tadqiq qilishga alohida e'tabor qaratilmoqda.

Koxlear implantatsiyadan so'ng ham bolalarda yuqorida sanab o'tilgan o'ziga xos, alohida ta'lim olishga sabab bo'luvchi qiyinchiliklar mavjuddir. Masalan, og'zaki nutqni mustaqil o'zlashtira olmaslik, uni yozuvdagi ifodaga o'tkazishdagi qiyinchilik kabi ko'plab kamchiliklar kuzatilmoqda. Buning bosh sababi esa, oiladagi reabilitatsiya davri to'g'ri va to'liq olib borilmayotganligi deb hisobladik.

Tadqiqotimiz davomida o'quvchilarning eshituv-nutqiy faoliyatini samarali tashkil etishga mo'ljallangan texnologiyalarni o'rganishga ustuvorlik berildi. Shunday ekan bu muammoni kompleks hal etuvchi yo'l fonetik ritmika texnologiyasida mavjud ekani isbotlangan. Fonetik ritmika universal korreksion texnologiya bo'lib, turli xildagi pedagogik jarayonda qo'llash mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Fonetik ritmika harakatlarini nafaqat korreksion mashg'ulotlarda, balki boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonida olib boradigan barcha darslarida qo'llashi mumkin.

Fonetik ritmikaning kompleks harakatlarini o'quvchilar tomonidan bajarilishida o'qituvchi ushbu yondashuvning texnologik tavsifini to'liq o'rganagan bo'lishi lozim, chunki fonetik ritmik harakatlar o'quvchilarning salomatliigi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o'qituvchi har bir bola uchun fonetik ritmik harakatlarning mos kelishiga ahamiyat qaratishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham fonetik ritmikani o'qituvchilarga to'liq o'rgatish, ushbu yondashuvdan metodik jihatdan to'g'ri foydalanishga erishish maqsadida qator xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilindi.

Masalan, T. M. Власова ва А. Н. Пфафенродлар ning ta'rifiga ko'ra fonetik ritmika – bu turli harakatlar (tana, bosh, qo'llar, oyoqlar) majmuasi bo'lib, muayyan nutq materialining (iboralar, so'zlar, bo'inlar, tovushlar) talaffuzi bilan uyg'unlashtirilgan nutqiy mashqlari tizimidir. Fonetik ritmika yaxshi kinezioterapiya hamdir, uning asosini



ritm tashkil etadi, ushbu metodikaning korreksion imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda fonetik ritmika bolalarga visual+audial+kinestetik ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga kelindi. Fonetik ritmika texnologiyasi orqali:

- Mayda va umumiy motorika harakatlari rivojlantiriladi;
- (harakat ritmi va muvozanat)
- talaffuz ko'nikmalari shakillantiriladi va rivojlantiriladi;
- nutqning prosodikasi ustida korreksion ish olib boriladi;
- nutqni eshitib idrok qilish qobiliyati shakillantiriladi va rivojlantiriladi.

Fonetik ritmika vizual+audial+kinestetik metod orqali singdiriladi. Vizual+audial+kinestetik metod bu – fonetik ritmikada tovushlarni, nutqiy materiallarni ko'rish, eshitish va teri-taktill sezgisi orqali anglatish imkonini beruvchi metod bo'lib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ongiga nutq elementlarini alohida va yaxlit yetkazib berishga xizmat qiladi. Ushbu metod fonetik ritmik harakatlarni singdirishda kompleks va tizimli yondashishda yordam beradi (1-rasm).



1-rasm. Fonetiki ritmik harakatlarini singdirish yo'llari.

1-vizual. Bunda maxsus pedagog avval bolaga holatni ko'rsatadi.

2-vizual+kinestetik. Bunda maxsus pedagog bolaga unga taqlid qilishini buyuradi va bajarilayotgan holatni ham ko'rsatadi va ham his qildirib o'rgatadi (taqli qilish orqali).


3-audial+vizual+kinestetik. Bunda pedagog bolaga holatni ham ko'rib, ham eshitib va ham sezib bajarishga o'rgatadi. Shunda jarayon to'liq anglanadi.

Fonetik ritmikada asosiy ish bolaga tovushni ham vizual, ham akustik va ham kinestetik anglatish hisoblanar ekan, bunda bola o'rganilayotgan tovushni talaffuz etayotib, uni butun badani bilan his etadi, eshitadi va ko'radi. Tovush nutqda paydo bo'lgach uni bo'g'in va so'zlarda mustahkamlash uchun ham audial+vizual+kinestetik ta'sir ko'rsatiladi. Bu jarayonlarga ritm ham qo'shiladi. Chunki eshitishida muammosi bor bolalarning og'zaki nutqi prosodik tomondan ham nuqsonli bo'lib chiqadi. Agar maxsus pedagog so'z yoki gapdagi urg'u, intonnatsiya ustida ishlamasa, bolaning nutqi tushunarsiz bo'lib rivojlanadi. Fonetik ritmika mashqlarida ritmning funksiyasi shu muammoni hal etishda yordam beradi. Fonetik ritmika orqali bola nutqining barcha

komponentlari rivojlanadi. Bunda soʻz va iboralardan soʻng gap va matn ustida ishlar boshlanadi. Bolalar bilan sherlarni yod olish bilan birgalikda ularni emotsional, ifodali qilib talaffuz etish koʻnikmalarini ham rivojlantirish uchun elementar mashqlar majmui ham bajariladi.

Shu oʻrinda nutqning prosodikasi nima?, degan savolga quyidagi 1- sxemada javob beramiz

(1-sxema)



Fonetik ritmikaniing tamoyillari:

Taqlidiy tamoyil – bunda fonetik ritmika jarayoninig namunaga qarab, unga oʻxshashga intilib, eshitgani, koʻrgani va his qilganiga boʻlgan javob reaksiya berish orqali holatni birgalikda bajarish qoidasiga rioya qilish;

Oddiydan-murakkabga yoʻnalganlik tamoyil – bunda fonetik ritmik jarayonlar bir biriga bogʻliq boʻlgan, ammo avval yangi elementar holatlardan boshlanib, soʻngra bolaning individual oʻzlashtirish xususiyatlaridan kelib chiqib topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirib borish qoidasiga amal qilish;

Shaxsiy yoʻnalganlik tamoyili – bunda fonetik ritmik mashqlarning har bir elementlari boladagi imkoniyatlariga mos tanlanishini taqozo etadi.

Refleksivlik tamoyil – bunda jarayonni anglash orqali oʻzini-oʻzi boshqarish, qayta javob reaksiyasini bera olish qoidasiga rioya qilishga.

Metodikaning kompleks imkoniyatlarini hisobga olgan halda fonetik ritmikaga quyidagicha taʼrif berildi. Fonetik ritmika – bu harakatli mashqlar majmui boʻlib, audial, vizual, kinestetik taʼsir etish orqali, alohida ehtiyojli bolalarning ogʻzaki nutqi va nutqining prosodik tomonini shakllantirishga hamda rivojlantirishga qaratilgan korreksion texnologiyadir.

Fonetik ritmikaniing negizini harakat tashkil etadi. Harakat esa, nutqni



nevrologik tomongan rivojlantirish imkonini berishi esa, A.P.Лурия tomonidan isbotlab berilgan.

Fonetik ritmika mashg‘uloti korreksion mashg‘ulot bo‘lsada, uning elementlarini barcha boshqa turdagi umumta‘lim maktablarda o‘qitiladigan darslarning dam olish daqiqalarida butun sinf jamoasi bilan olib borish mumkin. Muntazam olib boriladigan fonetik ritmik ta‘sir o‘quvchilarning nutqiy muammolarini bartaraf etish, nutqini ohangdor, jozibador bo‘lib borishida uzviylikni ta‘minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Шматко Н.Д. Коррекционная работа с глухими и слабослышащими детьми раннего возраста // Всесоюзный институт переподготовки и повышения квалификации кадров образования М., 1991
2. Qodirova F. U. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini shakllantirish. : Ped. fan. nomz. dis. avtoref. . . - T.:TDPU, 2006. - 20 b.
3. Fayziyeva U. Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish. : ped. fan. nomz. dis. . . . avtoref. - T.: TDPI. 1994. - 18 b.
4. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg‘ulotlarda eshishida nuqsoni bor bolalarning og‘zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish. Chirchiq, 1(1), 70.
5. Ishmatova, O. S. (2022). FONETIK RITMIKA TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASHDA AKT NING ROLI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(12), 781-786.
6. Ishmatova, O. S. (2022). ROLE OF PHONETIC RHYTHM IN CORRECTION OF SPEECH DEFECTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, (11), 487-491.
7. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. Ta‘lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.
8. Ishmatova, O. S. (2023). Phonetic rhythmic exercises in working on speech sounds. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 13(1), 79-85.
9. Ishmatova, O. (2023). THE EFFECTIVENESS OF USING PHONETIC RHYTHM IN SPEECH DEVELOPMENT OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS. Science and innovation, 2(B5), 232-236.
10. Ishmatova O.S. Alohida ehtiyojli boshlang‘ich sinf o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanish ilmiy-metodik muammo sifatida. MAXSUS VA INKLYUZIV TA‘LIM: AN‘ANA, TAJRIBA VA INNOVATSIYALAR’’ mavzusida respublika anjumani tezislari to‘plami Toshkent - 2023



*Jurnalning ushbu sonini  
tayyorlashda qatnashganlar:  
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan  
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan  
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK  
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan  
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar  
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi  
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi  
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.05.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$   
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.  
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.  
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**